

2/2026,
mart-
aprel
(№ 00082)



HISOB SIYOSATINING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich

"Buxgalteriya hisoboi" kafedrasi professori. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

Email: fabduvaxidov206@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0939-4483>

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol14_iss2/797

Annotatsiya

Ushbu maqolada hisob siyosatini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari tadqiq etilgan bo'lib, uni takomillashtirish bo'yicha muallifning taklif ishlab chiqilgan. Xususan, BHMSlarini MHXSga muvofiqlashtirish maqsadida 1-sonli "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" nomli BHMSni ikkita, ya'ni 1-sonli "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" nomli BHMS va 3-sonli "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar" nomli BHMSga ajratish maqsadga muvofiqligi bo'yicha amaliy tavsiyalari berilgan.

Kalit so'zlar: hisob siyosati, milliy standart, xalqaro standart, moliyaviy hisobot, tamoyillar, usullar, hujjat, qoida, tartib, hisob bahosi, aktiv, majburiyat, kapital.

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКИХ ОСНОВ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ

Абдувахидова Фархода Туйчиевича

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация

В данной статье исследованы теоретические и методологические основы формирования учетной политики и разработаны предложения автора по ее совершенствованию. В частности, в целях приведения НСБУ в соответствие с МСФО даны практические рекомендации о целесообразности разделения НСБУ № 1 "Представление финансовой отчетности и учетная политика" на два НСБУ № 1 "Представление финансовой отчетности" и НСБУ № 3 "Учетная политика, изменения и ошибки в учетных оценках."

Ключевые слова: учетная политика, национальный стандарт, международный стандарт, финансовая отчетность, принципы, методы, документ, правило, порядок, учетная оценка, актив, обязательство, капитал.

PROBLEMS OF IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING POLICY

Abduvakhidov Farkhod Tuychievich

Tashkent State University of Economics

Abstract

This article examines the theoretical and methodological foundations of accounting policy formation and develops author's proposals for its improvement. In particular, in order to bring BHMS into compliance with IFRS, practical recommendations were given on the expediency of dividing BHMS No. 1 "Presentation of Financial Statements and Accounting Policy" into two BHMS No. 1 "Presentation of Financial Statements" and BHMS No. 3 "Accounting Policy, Changes and Errors in Accounting Estimates."

Keywords: accounting policy, national standard, international standard, financial reporting, principles, methods, document, rule, procedure, accounting valuation, asset, liability, capital.

Kirish

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga qo'yilgan talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq, amalga oshirishni huquqiy asoslari ishlab chiqilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4611-sonli qarorida "... buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga muvofiq uyg'unlashtirish" nazarda tutilgan [1].

Shu boisdan, bugungi kunda buxgalteriya hisobiga oid amaldagi me'yoriy hujjatlarning qanchalik xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishida ko'pchilik iqtisodchi olimlar va soha xodimlarining hissasi katta. Ayniqsa, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini tan olingandan so'ng, milliy standartlarimizni ham ushbu standartlar talablariga moslashtirishni ishlari davom etmoqda. Xususan, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishning me'yoriy majmuasi hisoblangan hisobi siyosatini shakllantirish masalasiga ham e'tibor qaratilmoqda. Bunda, hisob siyosatining uslubiy asoslari takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lmoqda. Shu boisdan, mazkur maqolada aynan hisob siyosatining uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha muallifning fikr-mulohazalari bayon etilmoqda.

Maqolaning maqsadi hisob siyosati va uni shakllantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishda amaldagi 1-sonli "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" nomli BHMSni ikkiga, ya'ni 1-sonli "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" nomli BHMS va 3-sonli "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar" nomli BHMSga ajratish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ushbu masala bo'yicha J.E.Qurbanbayev (2026) (...1- sonli BHMS 2 ta standartga, ya'ni, bu yerda 1-son BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" nomi bilan va 18 — son BHMS "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar" ga ajratish bo'yicha taklifi beilgan) [2], Sayfulloyev J.Q. (2023) (... hisob siyosatini shakllantirishda xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati tomonidan belgilanadigan maqsadlarga aniqlik kiritilgan bo'lib, hisob siyosatini tuzishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan) [3], Popov A.N., Popov D.A (2024) (...hisob siyosatini o'zgartirish orqali moliyaviy natijaga ta'sir etishning qonuniy usullari aniqlangan, yuzaga keladigan nozik jihatlar va risklar tahlil qilingan. Tashkilotning moliyaviy natijasiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan buxgalteriya hisobi bo'yicha alohida qoidalar va buxgalteriya hisobining federal standartlarini qo'llash masalalari ko'rib chiqilgan. Mualliflar hisob siyosati tashkilot moliyaviy siyosatining tarkibiy elementi bo'lishi, investitsiya va amortizatsiya siyosatiga aniq mos kelishi, shuningdek, biznes egalari tomonidan o'rnatilgan dividend siyosati bilan bog'liq bo'lishi kerak degan xulosaga kelishgan) [4], Krongardt A.A. (2022) (... tashkilotning hisob

siyosati Rossiya Federatsiyasi buxgalteriya hisobi tizimining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqilgan. Moliyaviy va boshqaruv axborotlarining yaratilishi, ularning haqqoniyligi, ochiqdigi va hozirgi zamon uchun foydaliligi korxonalarining hisob siyosatida o'z aksini topishi nazarda tutilgan) [5], V.V. Bashkatov, A.I. Logvina (2021) (...hisob siyosatining asosiy qoidalarini shakllantirishga malakali yondashuv xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qodir. Hisob siyosati uch bo'limdan iborat bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosatining tashkiliy qismida buxgalteriya xizmati ishini tashkil etishning asosiy qoidalari aks ettiriladi) [6], Drujilovskaya T.Yu., Korshunova.T.N. (2016) (... tashkilotlarning hisob siyosatini shakllantirishni me'yoriy tartibga solishni isloh qilish bilan bog'liq muammolar o'rganilgan) [7], A.A. Adamenko, S.X. Berlina, X.Sh. Xuako (2015) (...tashkilotlarning hisob siyosatini ishlab chiqish va ayniqsa takomillashtirish murakkab jarayon bo'lib, u biznesning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, amaldagi qonunchilikni tahlil qilish, iqtisodiy va moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish, qarorlar qabul qilish va boshqalarni o'z ichiga olishi nazarda tutilgan) [8] kabilarning ilmiy tadqiqot ish natijalarida o'z ifodasini topgan. Biroq, ushbu iqtisodchilar hisob siyosatini shakllantirish, uning jihatlarini va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga ta'siri nuqtayi nazardan yondoshganlar. Yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlarda J.E.Qurbanbayevni ilmiy ishida 1-son BHMSni takomillashtirish bo'yicha bildirilgan taklif va tavsiyalari ahamiyatga molikdir.

Fikrimizcha, amaldagi 1-sonli "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" nomli BHMSni mazmun hamda mohiyat jihatidan ilmiy tahlil etish, shuningdek, uni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqot uslubi

Maqolada tizimli yondashuv, tahlil va sintez, guruhlash, induksiya va deduksiya, mantiqiy xulosalash, ma'lumotlarni qiyosiy taqqoslash va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar

Hisob siyosati buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amaldagi qonuniy hamda me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan tartib, qoida, usullar, yondoshuvlar majmuasidir. Shuningdek, hisob siyosati tufayli tashqi va ichki foydalanuvchilar xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum bir davr uchun moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirishning to'liqligini, ishonchliligini va xo'jalik faoliyatini baholash jarayonlari tahlil qilinadi.

Shu boisdan, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan shakllantirilayotgan hisob siyosati har tomonlama mukammal va professional mulohazaga asoslanib tuzilganligiga bog'liq. Bugungi kunda hisob siyosatining uslubiy asoslari ishlab chiqilgan va amalda qo'llanilmoqda [9]. Bunda, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan 4611-son qarori [1] ga muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarini tuzish moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari asosida amalga oshirish e'tirof etilgan. Ushbu jarayonni amalga oshirish subyektning hisob siyosatiga ham bog'liq bo'lmoqda. Shuning uchun hisob siyosati va uni shakllantirishga asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlarni ham xalqaro standartlar talablariga uyg'unlashtirish masalalariga e'tiborni qaratish lozimligini ko'rsatmoqda.

Shu boisdan, mazkur maqolada hisob siyosatining uslubiy asoslarini xalqaro standart talablariga uyg'unlashish jarayonini amaldagi me'yoriy hujjatlar ya'ni, 1-son BHMSni 8-son BHXS [10] ga nisbatan qiyosiy tahlil qilishni taqozo etdi. Xususan, 1-son BHMSni mazmun va mohiyati 8-son BHXSga nisbatan farqlari atroflicha talqin etilib, uning

tarkibi halqaro standartlarga uyg'unlashtirish nuqtayi nazardan qiyoslandi. Chunki mamlakatimiz buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini huquqiy jihatdan tan oldi va rasman O'zR adliya vazirligidan 3400-son [11] bilan ro'yxatdan o'tkazdi.

Fikrimizcha, mazkur hujjatga muvofiq, amaldagi 1-son BHMSni tarkibiy jihatdan 2 ta standartga ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. 1-son BHMSni nomi “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” deb atalib, bir vaqtda, moliyaviy hisobotni taqdim etish shuningdek, hisob siyosatini o'z ichiga qamrab olganligini ko'rish mumkin.

BHXSga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu holat 1-son “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” BHXS, shuningdek, 8-son BHHS alohida standart sifatida qabul qilingan. Shu nuqtayi nazardan, bizni Respublikamizda ham xuddi shunday 1-son BHMSni 2 ta standartga ajratish maqsadida 8-son BHXS va 1-son BHMSni bir -biri bilan qiyosiy tahlil etishni joiz deb topdik (1-jadval).

1-jadval

Xalqaro standartlarga muvofiq, hisob siyosatiga doir milliy standartning farqlari va o'zgarishi¹

Amaldagi 8-son “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar” BHHS	Amaldagi 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” BHMS	Taklif etilayotgan 3-sonli “Hisob siyosati, undagi o'zgarishlar va xatolar” BHMS
Maqsadi Qo'llash doirasi Ta'riflar Hisob siyosatini tanlash va qo'llash Hisob siyosatini ichzilligi Hisob siyosatidagi o'zgarishlar Hisob siyosatidagi o'zgarishlarni qo'llash Retrospektiv qo'llash Retrospektiv qo'llashdagi cheklovlar Ma'lumotlarni yoritib berish Hisob baholaridagi o'zgarishlar Ma'lumotlarni yoritib berish Xatolar Retrospektiv qayta hisoblashdagi cheklovlar O'tgan davr xatolarini yoritib berish Retrospektiv qo'llashning va retrospektiv qayta hisoblashning amaliy imkonsizligi Kuchga kirish sanasi va o'tish qoidalari	1-bob. Umumiy qoidalar 2-bob. Moliyaviy hisobotlar 3-bob. Umumiy jihatlar 4-bob. Hisob siyosati 5-bob. Moliyaviy hisobotning tuzilishi va mazmuni 6-bob. Buxgalteriya balansi 7-bob. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot 8-bob. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot 9-bob. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot 10-bob Hisob siyosatidagi va hisob baholaridagi o'zgartirishlar hamda muhim (jiddiy) xatolarni moliyaviy hisobotda aks ettirish 11-bob. Moliyaviy hisobotlarga izohlar	1-bob. Umumiy qoidalar 2-bob. Qo'llash doirasi 3-bob. Standartdagi ta'riflar 4-bob. Hisob siyosatini tanlash va uning izchilligi. 5-bob. Hisob siyosatini tarkibiy jihatlar Uslubiy jihati Texnik jihati Tashkiliy jihati Soliqqa tortish 6-Bob. Hisob siyosatini shakllantirishda qo'llaniladigan tamoyillar 7- bob. Hisob siyosatidagi va hisob baholaridagi o'zgartirishlar 8-bob. Xatolar va farqlar 9-bob. Hisob siyosatini retrospektiv qo'llash 10-bob.Ma'lumotlarni yoritib berish 11-bob. Standartni kuchga kirish sanasi

Bizning fikrimizcha, 1-jadval ma’lumotlariga asoslanib, 1-son BHMSni nomlanishini xalqaro standartlarga uyg’unlashtirish maqsadida, 3-sonli BHMS [12] (01.01.2025-yildan o’z kuchini kuchini yo’qotganligi sababli) uni 3-sonli “Hisob siyosati, undagi o’zgarishlar va xatolar” BHMS deb nomlash maqsadga muvofiqdir. Bunday nomlash, xo’jalik yurituvchi subyektlarning strategiyasi va taktikasi hisob siyosatini shakllantirishga bog’liqdir. U oqilona va iqtisodiy jihatdan asoslangan buxgalteriya qoidalarini o’z ichiga olishi kerak, chunki bu qoidalar keyinchalik tashkilotning barcha resurslaridan foydalanish samaradorligiga, o’z kapitali va biznesni kengaytirishga bevosita ta’sir qiladi. Hisob siyosati tufayli tashqi va ichki foydalanuvchilar xo’jalik yurituvchi subyektning ma’lum bir davr uchun moliyaviy-xo’jalik faoliyati to’g’risidagi hisobot ko’rsatkichlarini shakllantirishning to’liqligini, ishonchliligini va xo’jalik faoliyatini baholashni tahlil qiladi.

Shuningdek, hisob siyosatini shakllantirish metodologiyasini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish moliyaviy ma’lumotlarning taqqoslanuvchanligi, shaffofligi va ishonchliligini ta’minlash orqali transmilliy investitsiyalar oqimini rag’batlantirish hamda kapital bozorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Keyingi o’rinda, 1-son BHMSni birinchi qismida o’z ifodasini topgan “Moliyaviy hisobotni taqdim etish) ga e’tiborni qaratamiz. Demak, taklif etilayotgan 3-sonli “Hisob siyosati, undagi o’zgarishlar va xatolar” BHMS singari 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” nomli milliy standartni ham alohida standart sifatida nomlash maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz va uni quyidagi tartibda tahrirlash o’rinli bo’lardi (2-jadval).

2-jadval

Xalqaro standartlarga muvofiq, moliyaviy hisobotni taqdim etishga doir milliy standartlarning farqlari va o’zgarishi²

Amaldagi 1-son “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” BHMS [13]	Amaldagi 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” BHMS	Taklif etilayotgan 1-sonli BHMS “Moliyaviy hisobotni taqdim etish”
Maqsadi Qo’llash doirasi Ta’riflar Moliyaviy hisobotning maqsadi Moliyaviy hisobotning to’liq to’plami Umumiy jihatlar Qiyosiy ma’lumot Tuzilishi va tarkibi Moliyaviy holat to’g’risidagi hisobot: Moliyaviy holat to’g’risidagi hisobotda taqdim etiladigan ma’lumot Aktivlar va majburiyatlarni joriy va uzoq muddatliga bo’linishi	1-bob. Umumiy qoidalar 2-bob. Moliyaviy hisobotlar 3-bob. Umumiy jihatlar 4-bob. Hisob siyosati 5-bob. Moliyaviy hisobotning tuzilishi va mazmuni 6-bob. Buxgalteriya balansi 7-bob. Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot 8-bob. Xususi kapital to’g’risidagi hisobot 9-bob. Pul oqimlari to’g’risidagi hisobot 10-bob Hisob siyosatidagi va hisob baholaridagi	1-bob. Umumiy qoidalar 2-bob. Qo’llash doirasi 3-bob. Standartdagi ta’riflar 4-bob. Moliyaviy hisobot shakllari 5-bob. Umumiy tamoyillar 6-bob. Moliyaviy hisobot mazmuni va mohiyati 7-bob. Buxgalteriya balansi Buxgalteriya balansi to’g’risidagi hisobotda taqdim etiladigan ma’lumot Uzoq muddatli aktivlar Joriy aktivlar O’z mablag’lari manbai Majburiyatlar

<p>Amaldagi 1-son “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” BHHS [13]</p>	<p>Amaldagi 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” BHMS</p>	<p>Taklif etilayotgan 1-sonli BHMS “Moliyaviy hisobotni taqdim etish”</p>
<p>Joriy aktivlar Joriy majburiyatlar Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda yoki izohlarda aks ettiriladigan ma'lumotlar Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot Foyda yoki zarar bo'limida yoki foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobotda taqdim etiladigan ma'lumotlar Boshqa umumlashgan daromad bo'limida aks ettiriladigan ma'lumotlar Hisobot davri uchun foyda yoki zarar Hisobot davri uchun boshqa umumlashgan daromad Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot(lar)da yoki izohlarda aks ettiriladigan ma'lumot Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot Izohlar Hisob siyosatini yoritib berish Hisob baholariga nisbatan noaniqlik manbalari Kapital Xususiy kapital sifatida tasniflangan qaytarib sotiladigan moliyaviy instrumentlar Boshqa yoritib beriladigan ma'lumotlar</p>	<p>o'zgartirishlar hamda muhim (jiddiy) xatolarni moliyaviy hisobotda aks ettirish 11-bob. Moliyaviy hisobotlarga izohlar</p>	<p>Buxgalteriya balansiga qo'shimcha ma'lumotlar Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrovkasi 8-bob. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum Yalpi foyda (zarar) Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) Moliyaviy faoliyatning daromadlari Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari) Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) Hisobot davrining sof foydasi (zarari) 9-bob. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot Xususiy kapitalning ko'payishi (+) yoki kamayishi (-) 10-bob. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot Operatsion faoliyat Investitsiya faoliyati Moliyaviy faoliyat Soliqqa tortish Chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot 11-bob Moliyaviy hisobotlarni hisob siyosatiga muvofiq yoritib berish 12-bob Hisob baholariga nisbatan noaniqlik manbalari 13-bob. Moliyaviy hisobotlarga izohlar 14-bob. Moliyaviy hisobotlarda qo'shimcha ma'lumotlarni yoritib berish 15-Bob. Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish</p>

2-jadval ma'lumotlaridan shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish maqsadida amaldagi 1-sonli “Moliyaviy

hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” BHMS tarkibidan alohida chiqarib, 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” BHMS deb nomlash o‘rinli deb hisoblaymiz. Chunki, bugungi kundagi 1-son BHMSda moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish jarayonini to‘liq mazmun-mohiyatini ochib berolmaydi. Shu sababli, taklif etilayotgan 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” nomli BHMS moliyaviy hisobot shakllari, uning tarkibi, tuzilishi va uni taqdim etish bo‘yicha yetarlicha axborot bilan ta‘minlaydi. ni ishlab chiqish va huquqiy jihatdan ro‘yxatdan o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar

Yuqorida tahlil etilgan manbalar asosida, umumlashtirilgan fikr -mulohazalarga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- hisob siyosati va uni shakllantirishga doir manbalar atroflicha talqin etildi va asoslanildi;

- hisob siyosatini shakllantirishni tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlarning mazmun va mohiyati qiyosiy tahlil qilindi;

- hisob siyosatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjat ya‘ni, 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” BHMS tarkiban ikki standartga ajratish maqsadga muvofiqligi izohlandi. Xususan:

- amaldagi 1-sonli BHMSni 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” BHMS hamda 3-sonli “Hisob siyosati, undagi o‘zgarishlar va xatolar” BHMS deb nomlash o‘rinli bo‘lardi.

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash joizki, taklif etilayotgan ushbu standartlar birinchidan, shu sohada hisob tizimini tartibga solishda uslubiy asoslarning yanada takomillashivuga, ikkinchidan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish, taqdim etishda hisob siyosatining o‘rni hamda ahamiyatini oshiradi deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 4611-sonli qarori

2. Qurbanbayev J.E (2026). Hisob siyosatini shakllantirish metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish. iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2026, 87-bet, (26-27 betlar)

3. Sayfulloyev J.Q (2023). Xalqaro standartlar talablari asosida hisob siyosatini tuzish yo‘nalishlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, -T.: -2023-noyabr, 470-474 betlar

4. Попов А.Н., Попов Д.А (2024). Влияние отдельных положений учетной политики на показатели бухгалтерской (финансовой) отчетности организации. Экономические науки, Вестник Российского университета кооперации. -2024. № 2 (56), с. 41-45.

5. Кронгардт А.А. (2022). Учетная политика организации, её основные принципы и содержание. Международный научный журнал «Вестник науки». -2022, № 2 (47) Т.4. с.26-30

6. Башкатов В.В., Логвина А.И (2021). Организационные аспекты учетной политики как инструмент управления хозяйствующим субъектом. Деловой вестник предпринимателя. -2021. № 3(1), с.12-14

7. Дружиловская Т.Ю., Коршунова.Т.Н (2016). Направления дальнейшего реформирования нормативного регулирования учетной политики. Международный бухгалтерский учет. Издательский дом ФИНАНСЫ и КРЕДИТ, 2016 -2016, (15), с.2-16

8. Адаменко А.А., Берлина С.Х., Хуако Х.Ш (2015). Совершенствование учетной политики организации. Вестник Академии знаний. -2015, №14 (3), с.4-8.

9. 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” BHMS. (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 6-avgustda 3544-son bilan ro‘yxatga olingan) <https://lex.uz/uz/docs/7050497?ONDATE=01.01.2025%2000>

10. 8-son “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar” BHXS.-T.: <https://lex.uz/mact/6312360>

11. “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida” bo‘yrig‘i. (O‘zR AV tomonidan 09.12.2022-yil, ro‘yxat raqami 3400)

12. 3-sonli "Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot" BHMS (O‘zR AVdan 27.08.1998-yilda 484-son bilan ro‘yxatga olingan) 01.01.2025-yildan o‘z kuchini kuchini yo‘qotgan

13. 1-son “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” BHXS. -T.: <https://lex.uz/mact/6312360>